

Kurbanova Mariyam Dilshot qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika va
psixologiya" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TEMIR YO'L XODIMLARINING KASBIY FAOLIYAT MOTIVATSIYASI DIAGNOSTIKASI

UO'K: 159.9

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_11_3](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_11_3)

KURBANOVA M.D.-Q. ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TEMIR YO'L XODIMLARINING KASBIY FAOLIYAT MOTIVATSIYASI DIAGNOSTIKASI

Ushbu maqolada bo'lajak temir yo'l xodimlarining kasbiy faoliyat motivatsiyasini kattalar ta'limiga xos bo'lgan andragogik yondashuv asosida diagnostika qilish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot o'quvchilarning motivatsiya darajasi va tuzilmasini aniqlash, kasbiy faoliyatga barqaror qiziqishni shakllantiruvchi omillarni belgilash hamda temir yo'l sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: motivatsiya, kompetensiya, ijobiy va salbiy motivatsiya, diagnostika.

КУРБАНОВА М.Д.-К. ДИАГНОСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ РАБОТНИКОВ НА ОСНОВЕ АНДРАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В данной работе рассматривается диагностика профессиональной мотивации будущих железнодорожных работников с позиции андрагогического подхода, который ориентирован на особенности обучения взрослых. Исследование направлено на выявление уровня и структуры мотивации обучающихся, определение факторов, влияющих на формирование устойчивого интереса к профессиональной деятельности, а также на разработку рекомендаций по повышению эффективности образовательного процесса в системе подготовки кадров для железнодорожного транспорта.

Ключевые слова и понятия: мотивация, компетенция, положительная и отрицательная мотивация, диагностика.

KURBANOVA M.D.-K. DIAGNOSIS OF PROFESSIONAL MOTIVATION OF FUTURE RAILWAY EMPLOYEES BASED ON THE ANDRAGOGICAL APPROACH

This study examines the diagnosis of professional motivation among future railway employees through the lens of the andragogical approach, which focuses on the characteristics of adult learning. The research aims to determine the level and structure of students' motivation, identify factors that contribute to the development of a stable interest in professional activity, and provide recommendations to improve the effectiveness of the training process for railway industry specialists.

Key words and concepts: motivation, competence, positive and negative motivation, diagnostics.

Kirish. Hozirgi kompetensiya paradigmasi sharoitida ta'lim shakllari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda, ta'lim oluvchi o'z qobiliyatini to'liq namoyish etishi mumkin bo'lgan faol va muammoli o'qitish usullaridan foydalanishga o'tmoqda, ya'ni faol xususiyatlarni baholashda ta'lim va ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini birinchi o'ringa chiqadi.

Temir yo'l muhandisi kasbi bugungi kundagi eng muhim kasblardan biri bo'lib, chuqur bilim, ko'nikma va muayyan shaxsiy xususiyatlarni talab qiladi. Temir yo'l muhandisi yetarlicha yuqori malakali mutaxassis bo'lishi, ishlab chiqarish va texnologik, tashkiliy va boshqaruv, loyihalash va qidiruv, loyihalash, ilmiy-tadqiqot va boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi kerak; ishlab chiqarish muammolarini hal qila oladilar, o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni to'la his qila oladigan bo'lishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent transport texnikumi o'quvchilarining kasbiy kompetensiya-siga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda ularni amaliyotga qo'llashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, nazariy asoslash va tajribada sinab ko'rishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti Toshkent transport texnikumi o'quvchilarining kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni

Tadqiqotning predmeti Toshkent transport texnikumi o'quvchilarining kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish omillar, mazmuni, shakl, metod va vositalari

Tadqiqotning usullari.

Tadqiqot jarayonida anketa, suhbat, kontent-tahlil usullari, Zamfir tomonidan ishlab chiqilgan, A.Reana tomonidan modifikatsiya qilingan kasbiy faoliyat motivatsiyasi diagnostikasi metodikasi hamda matematik-statistik usullar: Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsienti, Kalmagorov-Smirnov mezoni, Styudentning t-mezoni asosida olingan miqdoriy ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturidan foydalanilgan.

Asosiy qism.

Empirik axborotlarni olish uchun har biri 61 kishidan iborat tajriba va 41 kishidan iborat nazorat guruhlarini aniqlab olinadi. Tajriba guruhlariga tajribaning shakllantiruvchi bosqichida maxsus kursda ishtirok etishga rozi o'quvchilar tanlab olinadi.

Tajriba guruhi ishtirokchilari bilan tajribaning shakllantiruvchi bosqichi o'tkazilgandan so'ng,

olingan natijalarni solishtirish uchun nazorat guruhi bilan ham so'rovnomaga o'tkaziladi.

Tajriba o'tkazish natijalarini bunday solishtirish shakllantiruvchi bosqichning samaradorligini tasdiqlash uchun zarurdir. Shakllantiruvchi bosqich davomida bo'lajak temiryo'l xodimlarida kasbiy kompetensiyaning rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tanlovning soni va tuzilmasi berilgan aniqlik va tadqiqot spetsifikatsiyasining talablari bilan asoslanadi. Xulosalarning ishonchligini 5%dan kam bo'lmagan aniqlik darajasida ta'minlash uchun asosiy metodikalar bo'yicha natijalarning ma'lum o'zgaruvchanligi parametrlari holatida o'tkazilgan tanlov representativ hisoblanadi.

Kompetentlik motivatsion-diaagnostik komponentini o'rganib chiqamiz.

Bo'lajak temiryo'l xodimlarining kasbiy kompetentligining motivatsion-diaagnostik komponentini tashxis etish uchun K.Zamfir tomonidan ishlab chiqilgan, A.Reana tomonidan modifikatsiya qilingan "Kasbiy faoliyat motivatsiyasi diagnostikasi"¹ metodikasidan foydalanildi.

Ushbu metodikadan kasbiy faoliyat motivatsiyasi, shu jumladan kasbiy-pedagogik faoliyat motivatsiyasini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Bu metodika ichki va tashqi motivatsiyani ajratib ko'rsatish, ular orasidagi munosabatni aniqlashga asoslanadi. Eslatib o'tamiz, faoliyatning o'zi shaxs uchun muhim bo'lganida motivatsiyaning ichki turi haqida gapirish kerak. Agar kasbiy faoliyat motivatsiyasi faoliyat mazmunidan tashqarida bo'lgan boshqa ehtiyojlarni qondirish istagiga asoslangan bo'lsa (ijtimoiy obro'ning motivlari, ish haqi va boshqalar), unda bu holda tashqi motivatsiya haqida gapirish mumkin. Tashqi motivlarning o'zi bu yerda tashqi ijobiy va tashqi salbiyga bo'linadi. Tashqi ijobiy motivlar, shubhasiz, barcha salbiy nuqtai nazardan tashqi salbiy motivlarga qaraganda samaraliroq va maqbuldir.

Olingan natijalar asosida shaxsning motivatsion kompleksi aniqlanadi. Motivatsion majmua - bu uch turdagi motivatsiyalar orasidagi munosabatdir: IM (ichki motivatsiya), TIM (tashqi ijobiy motivatsiya) va TSM (tashqi salbiy motivatsiya).

Eng yaxshi, maqbul, motivatsion komplekslarga quyidagi ikkita kombinatsiya kiradi:

$$IM > TIM > TSM \text{ va } IM = TIM > TSM.$$

¹ Мотивация профессиональной деятельности | Тест по психологии: | Образовательная социальная сеть.

1-jadval. Motivatsion komplekslar (namuna)

Kasbiy faoliyat motivi (№ p/p)	IM	TIM	TSM
1	1	2	5
2	2	3	4

2-jadval. "Kasbiy faoliyat motivatsiyasi diagnostikasi" metodikasi aniqlovchi tajriba-sinov natijalari

№	Motivatsion majmua	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		son ko'rsatkichi	% ko'rsatkichi	son ko'rsatkichi	% ko'rsatkichi
1	IM>TIM>TSM	26	43 %	13	33 %
2	IM>TSM>TIM	8	13 %	1	2 %
3	IM>TSM=TIM	-	-	1	2 %
4	IM=TIM>TSM	4	7 %	1	2 %
5	IM=TSM>TIM	10	16 %	4	10 %
6	IM=TIM=TSM	-	-	1	2 %
7	TIM>IM>TSM	7	11 %	14	35 %
8	TIM>TSM>IM	2	3 %	-	-
9	TIM>IM=TSM	3	5 %	3	7 %
10	TSM>TIM>IM	1	2 %	2	5 %
11	TSM>IM>TIM	-	-	1	2 %

Eng yomon motivatsion kompleks - bu

TSM>TIM>IM.

Ushbu komplekslar orasida samaradorligi jihatidan oraliq boshqa motivatsion komplekslar mavjud.

Interpretatsiya qilishda nafaqat motivatsion kompleks turini, balki motivatsiyaning bir turi boshqasidan qanchalik ustunligini hisobga olish kerak.

Masalan, ikkita motivatsion kompleksni aynan bir xil deb hisoblash mumkin emas.

Ham birinchi, ham ikkinchi motivatsion kompleks bir xil suboptimal turga kiradi.

TSM>TIM>IM

Biroq, birinchi holatda shaxsning motivatsion kompleksi ikkinchisiga qaraganda ancha salbiy ekanligi aniqlanadi. Ikkinchi holda, birinchisiga nisbatan salbiy motivatsiya indikatorining pasayishi va tashqi ijobiy va ichki motivatsiya ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatiladi (1-jadval).

Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra (Rean A.A., 1990, 1999), kasbdan qoniqish mutaxassisning motivatsion kompleksining maqbulligi bilan sezilarli bog'liqlik (ijobiy muhim munosabatlar, $r = +0.409$) mavjud. Boshqacha qilib aytganda, mutaxassisning tanlagan kasbidan qoniqish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning motivatsion kompleksi shunchalik maqbul bo'ladi: ichki va

tashqi ijobiy motivatsiyaning og'irligi va tashqi salbiyning vaznining pastligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tajriba-sinov ishlari Toshkent transport texnikumi "Tashish jarayonlarini avtomatlashtirish va axborotlashtirish" bo'limi, 5AX-1, 5A-1, 5B-1, 5R-1, 5TS-1 guruhlarida o'tkazildi. Tajriba-sinov ishimizda jami respondentlar soni 102 nafarni tashkil etdi. 41 nafari nazorat guruhi 61 nafari tajriba guruhi.

Bo'lajak temir yo'l xodimlarida kasbiy kompetentlikning motivatsion-diagnostik komponentini tashxis etish uchun K.Zamfir tomonidan ishlab chiqilgan, A.Reana tomonidan modifikatsiya qilingan "Kasbiy faoliyat motivatsiyasi diagnostikasi" metodikasidan foydalanildi. Metodikadan quyidagi natijalar olindi (2-jadval).

Aniqlovchi eksperimentimiz metodikasi natijalarining ko'rsatishicha tajriba va nazorat guruhi respondentlari 11 tipdagi kasbiy motivatsiya kompleksini namoyon etdilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, metodika ichki va tashqi motivatsiyani ajratib ko'rsatish, ular orasidagi munosabatni aniqlashga asoslanadi. Eslatib o'tamiz, faoliyatning o'zi shaxs uchun muhim bo'lganida motivatsiyaning ichki turi ustun bo'ladi. Agar kasbiy faoliyat motivatsiyasi faoliyat mazmunidan tashqarida bo'lgan boshqa ehtiyojlarni qondirish istagiga asoslangan bo'lsa (ijtimoiy obro'ning motivlari, ish haqi va boshqalar), unda bu holda tashqi motivatsiya haqida gapirish mumkin. Tashqi motivlarning o'zi bu yerda tashqi ijobiy va tashqi salbiyga bo'linadi. Tashqi ijobiy motivlar, shubhasiz, barcha

3-jadval. Kolmogorov-Smirnov (Z-qiyamat)

Shkala nomi	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Absolyut qiymat	Kalmogorov-Smirnov (Z)	Ishonch darajasi
Ichki motivatsiya	4,3235	,73339	,272	2,742	,000
Tashqi ijobiy motivatsiya	4,1275	,63692	,174	1,755	,004
Tashqi salbiy motivatsiya	3,1667	1,16324	,162	1,634	,010

salbiy nuqtai nazardan tashqi salbiy motivlarga qaraganda samaraliroq va maqbuldir. Motivatsion majmua - bu uch turdagi motivatsiyalar orasidagi munosabatdir: IM (ichki motivatsiya), TIM (tashqi ijobiy motivatsiya) va TSM (tashqi salbiy motivatsiya). Eng maqbul majmua IM>TIM>TSM yoki IM=TIM>TSM hisoblanib, bunday natijani tajriba guruhida 26+4 nafar (43%+7%), nazorat guruhida esa 13+1 nafar (33%+2%) respondent qayd etdi. Demak, ushbu o'quvchilar o'z mutaxassisliklarini mustaqil tanlaganlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatidan mamnun ekanligini taxmin qilish mumkin. IM>TSM>TIM va IM=TSM>TIM majmualarini tajriba guruhida 8+10 nafar (13%+16%), nazorat guruhida 1+4 nafar (2%+10%) respondent qayd etdi. Bundan kelib chiqadiki ushbu o'quvchilar bo'lajak kasbiy faoliyatida rahbar yoki boshqa xodimlar tomonidan tanqidga uchramaslik uchun ham samarali faoliyat olib borish kerak deb hisoblaydilar. Ularda kasbiy faoliyatdan qoniqqanlik hissi yetarlicha rivojlanmaganligini taxmin qilishimiz mumkin. IM=TIM=TSM kompleksini nazorat guruhidan 1 nafar (2%) respondent qayd etdi. Bu holat o'quvchining bo'lajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq tasavvurlarining to'liq shakllanmaganligi ko'rsatadi. TIM>IM>TSM; TIM>TSM>IM va TIM>IM=TSM komplekslari tajriba guruhida 7+2+3 nafar (11%+3%+5%), nazorat guruhida 14+_+3 nafar (35%_7%) respondent tomonidan qayd etilgan. Bu o'quvchilar bo'lajak kasbiy faoliyatini tanlashda moliyaviy va ijtimoiy qulayliklar haqida ko'proq qayg'urganlar deb taxmin qilish mumkin. Salbiy majmualar TSM>IM>TIM va TSM>TIM>IM lar bo'lib, tajriba guruhida 1 nafar (2%), nazorat guruhida 2+1 nafar (5%+2%) ishtirokchi qayd etdi. Ushbu respondentlar bo'lajak kasbiy faoliyatlarini ma'lum bosim ostida tanlagan deb taxmin qilishimiz mumkin. Ehtimol tajriba yakunida ularda kasbiga nisbatan muhabbat va hurmat hissi shakllanib, motivatsion komplekslari ijobiy tarafga o'zgarar.

O'tkazilgan metodikalarni matematik statistik tahlilini amalga oshirishdan avval, bu jarayonda aynan qaysi mezondan foydalanishimizni bilib olishimiz lozim. Buning uchun dastavval natijalarni

Kolmogorov-Smirnov (Z-qiyamat) mezoniga ko'ra tahlil qilamiz (3-jadval).

Olingan natijalarga ko'ra deyarli barcha shkalalar normal taqsimlanish qonuniga mos emasligi, ya'ni noparametrik qiymat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Demak, savolnoma orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni Spirmen mezoniga ko'ra, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar (respondentlarning tajriba avvali va tajriba so'nggi natijalari) ni tahlil qilish uchun, Styudent-t mezonidan foydalanamiz (4-jadval).

Olingan natijalardan ma'lumki "Ichki motivatsiya" va "Tashqi ijobiy motivatsiya" shkalalari, "Ichki motivatsiya" va "Tashqi salbiy motivatsiya" hamda "Tashqi salbiy motivatsiya" shkalalari orasida ijobiy korrelyatsion munosabat mavjud, ya'ni respondent bergan javoblarda birinchi shkala natijasi qanchalik yuqori bo'lsa, ikkinchi shkala natijasi ham shunchalik yuqori ko'rsatkichda bo'lgan.

Respondentlarning tajriba avvali va tajriba so'nggi natijalarini tahlil qilish uchun, Styudent-t mezoni natijalarini tahlil qilamiz (5-jadval).

Yuqoridagi 5-jadvalda Studentning t-mezoniga ko'ra nazorat guruhidagi ishtirokchilarning motivatsiya ko'rsatkichlari tajriba oldi va tajriba so'nggi bosqichlarida taqqoslab tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagicha talqin qilinadi:

Ichki motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha qiymat tajriba oldidan 4,3415 ni, tajribadan so'ng esa 4,4268 ni tashkil etdi. Olingan $t = -2,475$, $p = 0,018$ ($< 0,05$) bo'lgani uchun bu o'zgarish statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Demak, tajriba jarayoni ishtirokchilarning ichki motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tashqi ijobiy motivatsiya ko'rsatkichlari tahlilida esa $t = 0,508$, $p = 0,614$ ($> 0,05$) natija qayd etildi. Bu ko'rsatkich tajriba oldi va so'nggi bosqichlar orasida ahamiyatli farq mavjud emasligini bildiradi. Shu sababli, tajriba tashqi ijobiy motivatsiya darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan deb xulosa qilish mumkin.

Tashqi salbiy motivatsiya ko'rsatkichlarida esa tahlil natijasi $t = 2,810$, $p = 0,038$ ($< 0,05$) ni tashkil etdi. Bu esa statistik ahamiyatga ega farq mavjudligini ko'rsatadi. Shunday qilib, tajriba nati-

4-jadval. Spirmen mezoniga ko'ra metodika va savolnomalar orasidagi korrelyatsion munosabat

Shkala nomi	Ichki motivatsiya	Tashqi ijobiy motivatsiya	Tashqi salbiy motivatsiya	IQ darajasi	Maqsad shkalasi	Vosita shkalasi	Natija shkalasi
Ichki motivatsiya	1,000	,219*	,210*	,006	-,029	-,117	,101
Tashqi ijobiy motivatsiya		1,000	,070	,099	-,004	,106	-,031
Tashqi salbiy motivatsiya			1,000	,121	-,180	,062	,277**


Izoh: *korrelyatsiya 0,05 darajada ahamiyatli;

** korrelyatsiya 0,01 darajada ahamiyatli.

5-jadval. Styudentning t-mezoniga ko'ra o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning statistik tahlili (nazorat guruhi)

		O'rtacha qiymat	O'rtacha og'ishish	t	Ishonch darajasi
Juftlik 1	Ichki motivatsiya	4,3415	,78612	-2,475	,018
	Ichki motivatsiya tajribadan so'ng	4,4268	,65728		
Juftlik 2	Tashqi ijobiy motivatsiya	4,2854	,59948	,508	,614
	Tashqi ijobiy motivatsiya tajribadan so'ng	4,2607	,50392		
Juftlik 3	Tashqi salbiy motivatsiya	3,1463	1,20542	2,810	,038
	Tashqi salbiy motivatsiya tajribadan so'ng	2,9878	1,05764		

1-rasm. Styudent-t mezoniga ko'ra o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning statistik tahlili (nazorat guruhi).



jasida ishtirokchilarning tashqi salbiy motivatsiyasi kamayganligi aniqlangan.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, tajriba jarayoni nazorat guruhidagi ishtirokchilarning ichki motivatsiyasini oshirib, tashqi salbiy motivatsiyasini kamaytirgan, biroq tashqi ijobiy motivatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.

Jamlangan ma'lumotlarni diagramma ko'rinishida taqdim etamiz (1-rasm).

1-rasmda nazorat guruhidagi sinaluvchilarning ichki, tashqi ijobiy va tashqi salbiy motivatsiya ko'rsatkichlari tajribagacha va tajribadan so'nggi natijalari taqqoslab ko'rsatilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhi ishtirokchilarining motivatsion ko'rsatkichlarida **sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan**.

Xususan, **ichki motivatsiya** ko'rsatkichi tajribagacha o'rtacha 4,4 bo'lgan bo'lsa, tajribadan keyin 4,45 atrofida saqlanib qolgan. **Tashqi ijobiy motivatsiya** ham deyarli o'zgarmagan (4,2 dan 4,15 gacha). **Tashqi salbiy motivatsiyada** esa ozgina kamayish kuzatilgan (3,1 dan 3,0 gacha), biroq bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emas.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, nazorat guruhida o'quv jarayoni davomida **maxsus pedagogik-psixologik ta'sir choralari qo'llanilmaganligi sababli**, sinaluvchilarning motivatsiya darajasida muhim o'zgarishlar ro'y bermagan. Ichki va tashqi motivatsiya ko'rsatkichlarining deyarli bir xil bo'lib qolishi, tabiiy o'quv jarayonining o'z-o'zidan kuchli ta'sir ko'rsatmaganini bildiradi.

6-jadval. Styudentning t-mezoniga ko'ra o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning statistik tahlili (tajriba guruhi)

		O'rtacha qiymat	O'rtacha og'ishish	t	Ishonch darajasi
Juftlik 1	Ichki motivatsiya	4,3115	,70216	-5,700	,000
	Ichki motivatsiya tajribadan so'ng	4,5574	,46635		
Juftlik 2	Tashqi ijobiy motivatsiya	4,0215	,64408	4,598	,001
	Tashqi ijobiy motivatsiya tajribadan so'ng	3,7946	,53404		
Juftlik 3	Tashqi salbiy motivatsiya	3,1803	1,14394	3,281	,002
	Tashqi salbiy motivatsiya tajribadan so'ng	2,9918	,96390		

6-jadvalda sinaluvchilarning ichki va tashqi motivatsiya ko'rsatkichlarining tajriba oldi va tajriba so'nggi natijalari o'zaro solishtirilib, Studentning t-mezoni orqali statistik tahlil o'tkazildi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ichki motivatsiya ko'rsatkichlari tajribadan so'ng sezilarli darajada oshgan (o'rtacha qiymat 4,3115 dan 4,5574 gacha, $t = -5,700$; $p = 0,000$). Bu esa tajriba davomida qo'llanilgan ta'sirli usullar sinaluvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirganini ko'rsatadi.

Tashqi ijobiy motivatsiya ko'rsatkichlari esa biroz kamaygan (4,0215 dan 3,7946 gacha, $t = 4,598$; $p = 0,001$), bu ichki motivatsiyaning oshishi fonida tashqi rag'batlarning nisbiy ahamiyati kamayganini bildiradi. Shuningdek, tashqi salbiy motivatsiya ham tajribadan so'ng pasaygan (3,1803 dan 2,9918 gacha, $t = 3,281$; $p = 0,002$). Bu esa sinaluvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatida salbiy tashqi bosim omillari kamayganini anglatadi.

Quyida jadval ma'lumotlarini diagramma ko'rinishida taqdim etamiz (2-rasm).

2-rasmda sinaluvchilarning ichki, tashqi ijobiy va tashqi salbiy motivatsiya ko'rsatkichlarining tajribagacha va tajribadan so'nggi o'zgarishlari tasvirlangan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba davomida o'tkazilgan pedagogik-psixologik ta'sir vositalari talabalarning motivatsion sohasida **sezilarli ijobiy o'zgarishlarni** yuzaga keltirgan.

Xususan, **ichki motivatsiya** ko'rsatkichi tajribagacha o'rtacha 4,3 bo'lgan bo'lsa, tajribadan so'ng 4,5 gacha oshgan. Bu natija talabalarda o'quv faoliyatiga nisbatan ichki ehtiyoj, o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqish va mas'uliyat hissi kuchayganini ko'rsatadi.

Tashqi ijobiy motivatsiya ko'rsatkichida esa biroz pasayish kuzatilgan (4,0 dan 3,8 gacha). Bu holat o'quv jarayonida tashqi rag'batlantirish (baholar, maqtovlar, mukofotlar)dan ko'ra ichki omillarning ustun bo'la boshlaganini bildiradi.

Tashqi salbiy motivatsiya darajasi esa 3,2 dan 3,0 gacha kamaygan bo'lib, bu talabalarda jazodan qo'rquv, majburlash yoki tashqi bosim kabi

salbiy motivatsion omillar ta'sirining kamayganini anglatadi.

Statistik tahlilga ko'ra, nazorat guruhi respondentlarining aniqlovchi va ta'kidlovchi tajriba vaqtida ko'rsatgan natijalari orasida ishonchli bog'liqliklar qayd etilmadi.

Tajriba guruhi respondentlari aniqlovchi va ta'kidlovchi tajriba vaqtida qayd etgan natijalari Studentning t-mezoniga ko'ra o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarining statistik tahlili ular orasida ishonchli bog'liqliklar mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Demak, tajriba guruhlariga tegishli natijalarning nazorat guruhlariga natijalariga ko'ra yuqori ekanligini ifodalaydi. Shunday qilib, statistik tahlil bo'lajak temir yo'l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi.


Xuloslar:

1. Motivatsiyaning ichki va tashqi turlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda ichki motivatsiya tashqi motivatsiyaga nisbatan yuqori bo'lsa-da, ularni mustahkamlash uchun shaxsiy qiziqish va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

2. Tashqi ijobiy motivatsiya o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, biroq faqat baho yoki mukofotga asoslangan yondashuv barqaror natija bermaydi. Shu bois tashqi rag'batlar ichki ehtiyojlarni rag'batlantiruvchi omillar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

3. Tashqi salbiy motivatsiya talabning faolligi va o'zini namoyon etish darajasini pasaytiradi. Shuning uchun pedagogik jarayonda jazolash va bosim o'rniga ijobiy muloqot, psixologik qo'llab-quvvatlash va o'zaro hurmat muhitini shakllantirish zarur.

4. Motivatsiyani rivojlantirishda innovatsion o'qitish texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlar, muammoli o'qitish va loyiha asosidagi ta'lim talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o'z faoliyatiga mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

2-rasm. Styudentning t-mezoniga ko'ra o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning statistik tahlili (tajriba guruhi).**Tavsiyalar:**

1. Talabalarda ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun o'qituvchilar dars jarayonida mustaqil tanlov, erkin fikrlash va ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Har bir talabaning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quv topshiriqlarini moslashtirish ichki rag'batni mustahkamlaydi.

2. Tashqi ijobiy motivatsiyani samarali qo'llash maqsadida baho, mukofot va rag'bat tizimini shunday tashkil etish lozimki, u talabaning o'z mehnati natijasidan mamnun bo'lishini kuchaytirsin, lekin ichki ehtiyojni so'ndirmasin. Rag'batlantirish jarayoni o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirishga turtki bo'lishi kerak.

3. Salbiy tashqi omillarni kamaytirish uchun ta'lim muhitida psixologik qulaylik, o'zaro ishonch va hamkorlik asosidagi muloqot tizimini shakllantirish tavsiya etiladi. O'qituvchilarga jazolash yoki tanbeh berish o'rniga, ijobiy mustahkamlash (maqto'v, qo'llab-quvvatlash) usullarini qo'llash tavsiya qilinadi.

4. Innovatsion o'qitish metodlarini keng joriy etish zarur. Interfaol o'yinlar, loyiha va muammoli o'qitish usullari orqali o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ularning mas'uliyati, ijodkorligi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda motivatsiyani barqaror oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Блинова, М.Л. Обеспечение преемственности в развитии профессиональной компетентности студентов и начинающих специалистов: монография / М.Л. Блинова. – Йошкар-Ола: МОСИ – ООО «СТРИНГ», 2012. – 181 с.
2. Брызгалова С.И., Ильина М.В., Ротенкова Т.Н. Педагогические условия формирования ключевых компетенций учащихся основной школы: Монография – Калининград: БФУ им. И.Канта, 2011. – 176 с.
3. Громкова М. Т. Андрагогика: теория и практика образования взрослых: учеб. пособие. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. — 495 с.
4. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – 2-е изд. – М.: Изд-во Москов. психолого-социал. ин-та; Воронеж: Изд-во НПО "МОДЭК", 2003. – 480 с.
5. Сергеев А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г.Сергеев; Владим. гос. ун-т. – Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. – 107 с.